

MILLIY ONG VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING JAMIYAT

TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Qodirova Mufazzal Arslonovna

Andijon shahar hokimining jamoatchilik

bilan ishlash bo'yicha maslahatchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21942691>

Annotatsiya. Mazkur tesizda milliy ong va milliy o'zlikni anglash tushunchalarining mazmun-mohiyati hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati tahlil qilinadi. Milliy ongning shakllanishida tarixiy xotira, milliy qadriyatlar, ma'naviy meros, til, madaniyat va an'analar muhim omil sifatida yoritiladi.

Kalit so'zlar: milliy ong, milliy o'zlik, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy ong, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ma'naviy meros.

Milliy ong - muayyan millatga mansub kishilar tomonidan milliy qadriyatlarga tayangan holda ijtimoiy munosabatlar hamda hayotiy faoliyatlarni samarali tashkil etishga nisbatan ongli yondashuv darajasi sanaladi. Falsafiy manbalarda “milliy ong” tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: “millatning yagona tili, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlari va ma'naviyatining pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishining muhim mezon¹ hisoblanadi. O'z navbatida milliy ongning rivojlanib borishi har bir millatning o'z-o'zini anglash darajasiga ko'taradi.

O'quvchilarda milliy ongni shakllantirishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda “rivojlanish”, “tarbiyalash”, “shakllantirish”, “omil”, “pedagogik ta'sir”, “milliy g'urur”, “milliy iftixor” va “milliy o'zlikni anglash” kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot muammosini ijobiy hal etishda bu tushunchalarning mazmunini to'laqonli anglab olish taqozo etiladi.

Ko'plab adabiyotlarda «shakllanish», «rivojlanish», «tarbiyalash», ayrim manbalarda esa «ijtimoiylashuv» tushunchalarining yagona mantiqqa egaligi qayd etiladi. «Shakllantirish» va «rivojlantirish» tushunchalarining o'zaro bir-birini o'rnini to'ldiruvchi tushunchalar ekanligi to'g'risidagi qarashlar ham mavjud. Ularga ko'ra, shakllantirish jarayoni rivojlantirish va rivojlantirish jarayoni esa shakllantirish negizida sodir bo'lishi g'oyasi ilgari suriladi.

Shaxsni tarbiyalash tarbiya jarayonini tashkil etish chog'ida ro'y berib, shaxsda ma'lum ma'naviy-axloqiy, irodaviy va shaxsiy xislatlarni qaror toptiradi. Tarbiya ijtimoiy hayotning umumiy va muhim kategoriyasi sanaladi. Shu bilan birga ijtimoiy hodisa sifatida bir qator xususiyatlarga ega. Masalan, ajdodlar tomonidan to'plangan tajribalarni avlodlarga etkazish, insoniyat tomonidan yaratilgan bilimlarni egallash, inson salomatligi va rivojini ta'minlash, dunyoqarashni tarkib toptirish va boshqalar. Tarbiya jarayonining samarasi maqsadning aniq belgilanganligi, faoliyat asosida tashkil etilgan faoliyatning natijalanganligi va uning mazmunida aks etuvchi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

«Rivojlanish» atamasining sof biologik, «tarbiyalash» atamasining pedagogik, «shakllanish» atamasining esa falsafiy kategoriya sifatida qabul qilinganligini inobatga oladigan bo'lsak, o'z-o'zidan anglanadiki, shaxsni shakllantirish jarayoni uni rivojlantirish (aniqroq qilib aytganda, shaxsda muayyan sifatlarni tarbiyalash, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish) negizida sodir bo'luvchi ijtimoiy hodisadir. Zero, «shakllanish» atamasi

¹ <https://www.hufocw.org>.

dunyoqarash va uning tarkib topishini anglatuvchi asosiy tushunchadir. Bizga yaxshi ma'lumki, shaxs dunyoqarashining tarkib topish hodisasi unda shaxsiy, irodaviy hamda ma'naviy-axloqiy sifatlarning mavjudligi va yaxlitligiga tayangan holda sodir bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda qayd etish lozimki, o'quvchilarda milliy ongni shakllantirish uzoq muddatli, tizimli va izchil yondashuvni talab etuvchi pedagogik faoliyat jarayonidir. Bu jarayon barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy maqsadni amalga oshirish borasidagi yaxlit jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarida milliy ongni shakllanganligini aniqlash uchun bu tushunchaning mohiyatini anglab olish talab etiladi. Shu sababli uning manbalarda yoritish holatini tahlil qilish asosida o'quvchilarda milliy ongni shakllanganlik darajasini aniqlashga yordam beruvchi mezonlarni yaratishga urinib ko'ramiz.

Milliy iftixor tuyg'usi - o'z milliy mansubligidan fahrlanish imkoniyati. Milliy iftixor tuyg'usi o'z millatining boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish imkoniyati. Milliy iftixor tuyg'usi - o'zligini anglash va o'zgalarni tushunishga da'vat etuvchi qudratli kuch.

Ko'rinib turibdiki, bu o'rinda g'urur tushunchasini shaxsga, iftixor tushunchasini millatga xos tuyg'u sifatida e'tirof etadilar. Aynan mana shu holat ular o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi ko'rsatkich sifatida qabul qilinadi. Har ikki tushunchaga berilgan ta'rifdan g'urur tushunchasi individuallik, iftixor tushunchasi esa ijtimoiylik xususiyatiga ega bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Milliy g'urur (iftixor), - deb ta'rif beriladi manbalarda, - shaxs yoki ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy-ma'naviy meros, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmat, obro'-e'tiboridan fahrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

Milliy g'urur, milliy iftixor o'zi mansub bo'lgan millat, xalqning ravnaqi, taraqqiyoti uchun kurashishnigina emas, shu bilan birga o'zga millatga mansub kishilarga hurmat-ehtirom ko'rsatishni taqozo qiladi. Bunday tuyg'uga ega ma'naviy etuk kishi milliylikni millatchilikdan, haqiqiy milliy g'ururni millatparastlikdan farqlay oladi, boshqa millat vakillarining izzat nafi va g'ururini kamsitmaydi. Shuningdek, milliy g'urur va iftixor tuyg'usiga ega insonda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi shakllanadi.

Muammoga oid manbalarni o'rganish, shaxsda milliy ongni shakllantirish jarayonida quyidagilar muhim o'rin tutishi aniqlandi:

1. Milliy mansublik - shaxsning muayyan millat vakili ekanligini ifodalovchi holat, maqom. Mazkur tushuncha shaxsning nasabini ham ifodalashga xizmat qiladi.

Zero, ota-ona yoki sulolaning qanday millat vakili ekanligi farzandlarda ana shu millatga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishini kafolatlaydi. Milliy mansublikni belgilashda onaning maqomi muhim ahamiyatga ega.

Qadimdan o'g'il bolalarning farzandlari ma'lum urug' yoki sulolaning davomchilari, qizning farzandlari esa begona urug' yoki sulolaning nasli sifatida baholanib kelingan. Shu sababli o'g'il uylantirishga jiddiy e'tibor qaratilgan va kelinlikka ana shu sulolaga munosib qiz tanlangan. Zamonaviy sharoitda ham dunyoga kelgan chaqaloq uning onasi mansub bo'lgan millat vakili maqomini oladi.

2. Milliy tuyg'u, ruhiyat (milliy psixologiya) - sub'ektning ob'ektga bo'lgan muhim munosabati, mazkur munosabat mazmunida aks etuvchi xususiyat bo'lib, u ijtimoiy munosabatlar, shaxsning atrof-muhitga ta'sirida namoyon bo'ladi. Milliy tuyg'uga ega shaxs o'zini millat vakili ekanligini his eta olishi, u kechiradigan turmush tarzi millatdoshlariniki bilan uyg'un bo'la olishi lozim.

3. Milliy xarakter - millat vakillari ruhiyatida aks etuvchi barqaror psixik xususiyatlar birligi bo'lib, u ham ijtimoiy borliqqa munosabatda aks etadi. Millat vakillarining turmush tarzi, ijtimoiy maqsadlari, hayotiy faoliyatlari hamda ruhiy kechinmalarining yaxlitligi milliy xarakterga xos etakchi psixik xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi².

4. Milliy o'z-o'zini anglash - har bir millat (elat)ning o'zini real mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchisi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikini tushunib etishlaridir. Milliy o'z-o'zini anglash millatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini va uning umumiy taraqqiyotiga ta'sirining munosib baholanishiga xizmat qiladi.

5. Milliy g'urur - har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyat. Bu tuyg'u o'z ona zamini, ajdodlar tomonidan qoldirilgan moddiy-ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalaridan o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, oro'-e'tibori bilan fahrlanish hissiyotidir. ... Milliy g'urur har bir insonda o'z millatining moddiy-ma'naviy merosini o'zlashtirish, urf-odatlarini, an'analar, qadriyatlarini, tarixini mukammal bilish va uni o'zga millatlar bilan qiyoslash natijasida shakllanadi hamda unda o'z millatiga mehr-muhabbatini oshirib boradi³.

Milliy g'ururga egalik millat vakili sifatida o'zi mansub bo'lgan millat tomonidan tarixiy taraqqiyot davomida qo'lga kiritilgan yutuqlardan, millatning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan fahrlanishnigina ifodalab qolmay, balki milliy taraqqiyot, millat taqdiri va istiqboli uchun kurashish, bu borada chuqur mas'ullikni his etish hamdir.

6. Milliy iftixor - milliy g'urur tuyg'usiga egalikning yuqori bosqichi bo'lib, u millatning "yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir". Milliy iftixor tuyg'usiga egalik, shuningdek, millatning kishilik taraqqiyoti tarixida tutgan o'rnini, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan munosib hissasini, qadr-qimmatini, obro'-e'tiborini munosib baholay olish, millat istiqboliga bo'lgan ishonchga egalikni ham ifodalaydi.

Demak, yoshlar ongiga milliy iftixor tuyg'usini singdirish engil-elpi qaraladigan yoki shoshma-shosharlikni talab qiladigan jarayon emas, aksincha, bu holat pedagoglar harakatining behuda sarflanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://www.hufocw.org>.
2. <https://www.hufocw.org>.
3. Qarang. Abdullayev M. E. Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish tizimi: p. f. b.f. d. (phd) dis. Farg'ona - 2022.

² <https://www.hufocw.org>.

³ Qarang. Abdullayev M. E. Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish tizimi: p. f. b.f. d. (phd) dis. Farg'ona - 2022.